

JINOYAT TERGOVIDA TERGOV HARAKATLARINING O'RNI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

To'lanboyev Orifjon Ibrohimjon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" 2-kurs talabasi

Tel.: +998(94) 077-39-77

e-pochta: orifjontolanboyev@gmail.com

Soliyev Dilshod Baxtiyor o'g'li

Ilmiy rahbar: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari" kafedrasida katta o'qituvchisi

e-pochta: dsoliyev9610@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20135827>

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat tergovida tergov harakatlarining huquqiy o'rni va ularni takomillashtirishning dolzarb masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi tahlil qilingan, so'nggi yillarda kiberjinoyatlarning keskin o'sishi sharoitida tergov harakatlarining samaradorligi baholangan. Raqamli dalillarni yig'ish, videoqayd masalalari va tergovchilar malakasidagi muammolar ochib berilgan. Xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil asosida tergov harakatlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tergov harakatlari, jinoyat terгови, raqamli dalillar, kiberjinoyatlar, videoqayd, gibrid tergov modeli, jinoyat-protsessual huquq.

Anotation

This article examines the legal status of investigative actions in criminal proceedings and current issues of their improvement. The study analyzes the criminal procedural legislation of the Republic of Uzbekistan and evaluates the effectiveness of investigative actions in the context of the sharp rise in cybercrime. The problems of collecting digital evidence, mandatory video recording, and the professional competence of investigators are highlighted. Based on a comparative analysis with foreign experience, practical recommendations for improving investigative actions have been developed.

Keywords: investigative actions, criminal investigation, digital evidence, cybercrime, video recording, hybrid investigation model, criminal procedural law.

Аннотация

В данной статье исследуется правовое положение следственных действий в уголовном процессе и актуальные вопросы их совершенствования. В работе проанализировано уголовно-процессуальное законодательство Республики Узбекистан, оценена эффективность следственных действий в условиях резкого роста киберпреступности. Выявлены проблемы сбора цифровых доказательств, обязательной видеофиксации и профессиональной компетенции следователей. На основе сравнительного анализа зарубежного опыта разработаны практические предложения по совершенствованию следственных действий.

Ключевые слова: следственные действия, уголовное расследование, цифровые доказательства, киберпреступность, видеофиксация, гибридная модель расследования, уголовно-процессуальное право.

Kirish

Bugungi kunda jamiyatda huquq-tartibotni ta'minlash va jinoyatchilik bilan samarali kurashish har qachongidan ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Jinoyat terгови esa bu

jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Tergov harakatlari jinoyatning sodir etilishini o'z vaqtida aniqlash, aybdorlarni fosh etish, haqiqatni topish va dalillarni yig'ishning asosiy vositasi sifatida maydonga chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilanganidek, tergov harakatlari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning jinoyat ishini yuritishdagi huquqiy faoliyatining markaziy qismidir.

Tergov harakatlari, ya'ni so'roq qilish, tintuv, ko'zdan kechirish, ekspertiza, yuzlashtirish va boshqalar jinoyat ishi bo'yicha isbotlovchi dalillarni qonuniy yo'l bilan to'plashga xizmat qiladi. Professor A. Ahmedovning ta'kidlashicha, "Tergov harakatlarining sifati va qonuniyligi butun jinoyat jarayonining adolatli yakunlanishini belgilaydi"¹. Xalqaro tajribada ham tergov harakatlarini takomillashtirish masalasi katta ahamiyatga ega. Masalan, amerikalik huquqshunos Ronald Allenning fikricha, zamonaviy jinoyat tergovida dalillarni yig'ishning samaradorligi nafaqat qonun normalariga, balki ularni amalda qo'llashning professional va texnologik jihatlariga ham bog'liq².

O'zbekiston Respublikasida "Adolatli sud tizimi" va "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyalari doirasida huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar tergov harakatlarini o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga, shaxs huquqlarini ishonchli himoya qilishga va protsessual nazoratni kuchaytirishga qaratilgan. Biroq, amaliyotda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Ular orasida tergov harakatlarini o'tkazishda texnologik vositalardan yetarli darajada foydalanilmasligi, tergovchilarning malakasida ba'zi kamchiliklar, dalillarni yig'ish va saqlash jarayonidagi texnik qiyinchiliklar hamda vaqtinchalik cheklovlar mavjud. Shuningdek, raqamli jinoyatchilikning o'sishi - kiberjinoyatlar, onlayn firibgarliklar tergov harakatlarini yangicha sharoitlarda o'tkazishni talab etmoqda. An'anaviy usullar bilan bir qatorda, raqamli dalillarni olish, elektron monitoring va sun'iy intellekt yordamida tahlil qilish kabi zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurati paydo bo'lmoqda. Shu keltirgan muammolar jinoyatni tez va to'liq ochishga, aybsiz shaxslarning huquqlarini himoya qilishga hamda sud hukmining adolatligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu maqolamning asosiy maqsadi jinoyat tergovida tergov harakatlarining huquqiy o'rnini tahlil qilish, ularning amaliyotdagi muammolarini aniqlash hamda ularni takomillashtirishning ilmiy asoslangan yo'llarini ishlab chiqishdan iboratdir. Bu tadqiqotimning vazifalariga O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligini tahlil qilish, xorijiy tajribani o'rganish, mavjud kamchiliklarni ochib berish va amaliy tavsiyalar berishni asosiy vazifa qilib oldim. Tergov harakatlarini takomillashtirish nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytiradi, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada ishonchli himoya qilishga, sud tizimiga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur mavzuning o'rganilishi ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Jinoyat tergovida tergov harakatlarining o'rni va ularni takomillashtirish masalalari huquqshunoslikda ancha yillar davomida o'rganilmoqda. Tergov harakatlari jinoyat protsessining markaziy vositasi sifatida ko'plab olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

¹ Ahmedov B. Jinoyat tergovida tergov harakatlarining o'rni va ularni takomillashtirish masalalari. O'zbekiston huquqshunosligi jurnali. - 2022. - № 3. - B. 45.

² Allen R.J. Criminal Procedure: Investigation and the Right to Counsel / Ronald J. Allen, William J. Stuntz, Joseph L. Hoffmann, Debra A. Livingston, Tracey L. Meares. 3rd ed. Wolters Kluwer, 2016. - P. 45-67.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida tergov harakatlari dalillarni to'plash, tekshirish va baholashning asosiy shakli sifatida belgilangan. JPK 87-135-moddalarida bular batafsil yozilgan. Mahalliy olimlar orasida M. Rustamboyev, N. Gulyamov, B. Ahmedov va boshqalar bu mavzuga katta hissa qo'shgan. Professor M. Rustamboyev o'z asarlarida tergov harakatlarining jinoyat ishini hal qilishdagi muhim o'rnini ta'kidlaydi. B. Ahmedov esa tergov harakatlarining sifati va qonuniyligi butun jinoyat jarayonining adolatli yakunlanishini belgilovchi omil ekanligini qayd etadi. Xorijiy adabiyotlarda ham mavzu keng yoritilgan. Amerikalik huquqshunos Ronald J. Allen zamonaviy jinoyat tergovida dalillarni yig'ish samaradorligi nafaqat qonun normalariga, balki ularni professional va texnologik jihatdan amalda qo'llashga ham bog'liqligini ta'kidlaydi³. Rossiya huquqshunosligida S.A. Sheyfer tergov harakatlarini "jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashning huquqiy vositasi" deb baholaydi va ularning tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Uning fikricha, tergov harakatlari dalillarni qonuniy yo'l bilan shakllantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi⁴. So'nggi yillarda olimlar ko'rsatgan asosiy muammolar:

1. Tergov harakatlarida zamonaviy texnologiyalardan, ya'ni videoqayd, elektron dalillar, sun'iy intellekt yetarli foydalanilmasligi.
2. Tergovchilar malakasining ba'zi jihatdan yetarli emasligi.
3. Raqamli jinoyatlar sharoitida tergov harakatlarini o'tkazishdagi qiyinchiliklar.
4. Shaxs huquqlarini himoya qilish va tergov samaradorligi o'rtasidagi muvozanat masalasi.

Xorijiy tajribada, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya tergov harakatlarini videoqayd qilish majburiy holga keltirilgani va raqamli dalillarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish keng qo'llanilayotgani kuzatilmoqda. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida bu yo'nalishda ishlar olib borilmoqda, ammo nazariy va amaliy tadqiqotlar hali yetarli emas deb hisoblanadi. Bu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tergov harakatlarining huquqiy asoslari yaxshi ishlab chiqilgan bo'lsada, ularni amaliyotda takomillashtirish, xalqaro tajribadan foydalanish va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar talab etilmoqda.

Bu tadqiqot huquqiy fanlarga xos normativ-huquqiy va qiyosiy-huquqiy usullarga asoslangan holda amalga oshirildi. Asosiy usul sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Jinoyat kodeksi va tegishli qonun hujjatlarining normativ tahlili qo'llanildi. Tergov harakatlarining huquqiy asoslari va amaliy muammolarini o'rganish uchun mahalliy olimlarning ilmiy ishlaridan hamda xorijiy adabiyotlardan foydalanildi. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy usul orqali O'zbekiston tajribasi Rossiya, AQSh va Yevropa mamlakatlarining jinoyat tergovi amaliyoti bilan solishtirildi. Shuningdek, analitik-sintetik va mantiqiy usullar yordamida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'llari taklif etildi. Ma'lumotlar manbalari sifatida normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar va rasmiy statistik ma'lumotlar ishlatildi. Tadqiqotning cheklovchiligi sifatida tergov harakatlarining maxfiy xususiyati tufayli ayrim amaliy ma'lumotlarning to'liq ochiq bo'lmasligini ko'rsatish mumkin.

³ Allen, Ronald J. Criminal Procedure: Investigation and the Right to Counsel. - 4th Edition. Wolters Kluwer, 2020. <https://aspublishing.com/products/allen-crimproinvestigation5>

⁴ Шейфер С.А. Следственные действия. Система и процессуальная форма. - М.: Юрлитинформ, 2001. PDF: https://library.nlu.edu.ua/POLN_TEXT/UP/SHEYFER_2001.pdf

Jinoyat tergovida tergov harakatlari butun jinoyat-protsessual jarayonining yuragi hisoblanadi. Ular jinoyatni o'z vaqtida aniqlash, aybdorlarni topish, dalillarni qonuniy yo'l bilan yig'ish va haqiqatni ochishning eng muhim vositasi sifatida Jinoyat-protsessual kodeksining 87-135-moddalarida mustahkamlangan. Ammo so'nggi yillarda jamiyat hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ayniqsa raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi tergov harakatlari tizimiga jiddiy sinovlarni yaratmoqda.

Eng birinchisi va muhimi - jinoyatchilikning tabiatining o'zgarishi hisoblanadi. 2024-yilda O'zbekistonda jami 132 298 ta jinoyat qayd etilgan bo'lib, bu 2023-yilga nisbatan 27,1 foizga ko'p⁵. Ayniqsa, kiberjinoyatlarning keskin o'sishi diqqatni tortadi. 2021-2025 yillarda kiberjinoyatlar soni 11 baravar oshib, 4865 tadan 62 440 taga yetgan. 2024-yilda kiberjinoyatlar barcha jinoyatlarning 44,4 foizini tashkil etgan 2023-yilda bu atigi 6,2 foiz edi. Toshkent shahrida esa bu ko'rsatkich 50 foizdan ham oshgan. Natijada, fuqarolarga yetkazilgan moddiy zarar 2021-2025 yillarda 3,73 trillion so'mdan oshdi, shundan faqat 2025-yilning birinchi 11 oyida 1,89 trillion so'mni tashkil etgan.⁶ Biroq, tergov amaliyotida hali ham an'anaviy tergov harakatlari - so'roq, tintuv, ko'zdan kechirish, yuzlashtirish va tergov eksperimenti asosiy o'rinni egallab turibdi. Bu usullar oddiy jinoyatlar uchun samarali bo'lishi mumkin, lekin raqamli muhitda sodir etiladigan jinoyatlarda yetarli emas. Mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, bulutli xotiralar, banking tranzaksiyalari va IP-manzillar kabi elektron dalillarni yig'ish, saqlash va sudda isbotlash jarayoni juda murakkab bo'lib qolgan. Ko'pincha dalillar texnik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilmagani uchun sudda rad etiladi yoki ularning haqiqiyliги shubha ostiga olinadi.

Ikkinchi muhim muammo esa tergov harakatlarini videoqayd qilish masalasidir. Hozirgi qonunchiligimizda faqat ayrim hollarda videoqayd tavsiya etiladi, lekin majburiy emas. Natijada tergov jarayonida shaxs huquqlari buzilishi, bosim o'tkazish haqidagi shikoyatlar va dalillarning qonuniyligini keyinroq isbotlashda katta qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Holbuki, AQSh, Germaniya va Rossiya tajribasida muhim tergov harakatlarining deyarli barchasi majburiy ravishda videoqayd qilinadi va bu dalillarning suddagi qiymatini keskin oshirgan.

Uchinchi asosiy muammo bu kadrlar va texnologik bazaning zaifligi hisoblanadi. Hozirgi tergovchilarning ko'pchiligi raqamli dalillarni olish, tahlil qilish va raqamli izlarni kuzatish bo'yicha yetarli malakaga ega emas. Maxsus raqamli laboratoriyalar soni ham yetarli emas. Shu sababli tergov muddatlari uzayib ketmoqda, jinoyatlar ochilish darajasi pasaymoqda va sudga boradigan ishlarning sifati ham tushib ketmoqda.

Xorijiy tajribani solishtirganda, Janubiy Koreya, Singapur va Germaniyada tergovni raqamlashtirish va avtomatlashtirish tergov samaradorligini 30-50 foizga oshirgani kuzatilgan. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida ba'zi ishlar boshlangan bo'lsada, bu hali yetarli emas. Umuman olganda, tergov harakatlari jinoyat tergovining markazida bo'lib qolayotgan bo'lsa ham, ularning hozirgi holati zamonaviy jinoyatchilikning yangi shakllariga mos kelmay qolgan. An'anaviy usullarni butunlay rad etmasdan, ularni raqamli texnologiyalar bilan birlashtirish, ya'ni gibridd yondashuv bugungi kunning eng muhim talabi hisoblanadi.

⁵ [Jinoyatlar statistikasi – Gazeta.uz tahlilida](#)

⁶ [Kiberjinoyatlar natijasida fuqarolarga yetkazilgan zarar – Kun.uz tahlilida](#)

Tadqiqotimizning tahlilidan keyin natijalar qismiga o'tamiz. So'nggi yillarda jinoyatchilik tabiatining tubdan o'zgarishi tergov harakatlarining samaradorligini pasaytirayotganini aniq ko'rsatdi. 2024-yilda kiberjinoyatlar barcha qayd etilgan jinoyatlarning 44,4 foizini tashkil etgan bo'lsa, tergov harakatlarining 65-75 foizi hali ham an'anaviy usullarga asoslanmoqda⁷. Bu holat tergov tizimining zamonaviy jinoyatchilikka yetarli darajada mos kelmayotganini yaqqol namoyon etmoqda.

Raqamli dalillarni yig'ish, saqlash va sudda isbotlash mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan. Mobil qurilmalar, bulutli xotiralar va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar kabi elektron dalillarni qonuniy yo'l bilan olish va rasmiylashtirishda huquqiy hamda texnik bo'shliqlar mavjud. Natijada, sud jarayonlarida dalillarning rad etilishi holatlari ko'payib bormoqda. Masalan, ko'plab kiberjinoyat ishlarida gumon qilinuvchining telefonidan olingan chat yozishmalar, banking tranzaksiyalari yoki ijtimoiy tarmoqlardagi suratlar sudda dalil sifatida rad etilmoqda. Buning asosiy sabablariga aytishimiz mumkinki, dalillar mutaxassis ishtirokida rasmiylashtirilmaganligi, videoqayd qilinmaganligi, elektron ma'lumotlarning asl nusxasi saqlanmaganligi yoki ularning ishonchligini tasdiqlovchi ekspertiza o'tkazilmaganligi. Ba'zi hollarda tergovchilar oddiy telefon ekran yozuvlari (skrinshotlar) ni dalil sifatida taqdim etganligi uchun sud ularni ishonchsiz deb topgan. Bu holat nafaqat tergov samaradorligini pasaytirmoqda, balki aybdorlarning javobgarlikka tortilishini ham qiyinlashtirmoqda.

Tergov harakatlarini videoqayd qilishning majburiy tartibga solinmaganligi muhim muammo bo'lib qolmoqda. Hozirgi qonunchilikda bu faqat tavsiya etiladi, lekin majburiy emas. Shu sababli tergov jarayonida shaxs huquqlari buzilishi holatlari va dalillarning ishonchligini shubha ostiga qo'yish muammolari kuchaymoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, majburiy videoqayd dalillarning sifati va suddagi ahamiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Tergovchilarning raqamli texnologiyalar bo'yicha malakasi yetarli emas. Aksariyat tergovchilar raqamli dalillarni olish, tahlil qilish va raqamli izlarni kuzatish bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega emaslar. Bu esa tergov muddatlarining uzayishiga, jinoyatlar ochilish darajasining pasayishiga va ishlar sifatining tushishiga olib kelmoqda. Xorijiy tajribani tahlil qilish natijasida aniq bo'ldiki, Janubiy Koreya, Singapur va Germaniya kabi davlatlarda tergov harakatlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish tergov samaradorligini 30-50 foizga oshirgan. O'zbekistonda esa bu yo'nalishdagi islohotlar hali boshlang'ich bosqichda qolmoqda. Umumiy xulosa shuki, tergov harakatlari jinoyat tergovining huquqiy va amaliy markazi bo'lib qolayotgan bo'lsada, ularning hozirgi holati zamonaviy jinoyatchilikning yangi shakllariga mos kelmay qolgan. Shuning uchun an'anaviy va raqamli usullarni uyg'unlashtirgan gibridd yondashuvni joriy etish bugungi kunning eng dolzarb zarurati hisoblanadi. Bu natijalar tergov harakatlarini takomillashtirish bo'yicha aniq amaliy takliflar ishlab chiqish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi deb hisoblayman.

Zamonaviy jamiyatda jinoyatchilikning tabiatining tubdan o'zgarishi tergov harakatlari oldiga yangi va murakkab talablarni qo'ymoqda. Bu tadqiqot davomida aniqlanishicha, tergov harakatlari jinoyat tergovining yuragi va markaziy vositasi bo'lib qolayotgan bo'lsada, ularning hozirgi holati raqamli davr talablariga to'liq javob bera olmayapti. Kiberjinoyatlarning keskin o'sishi, raqamli dalillarning ko'payishi va an'anaviy usullarning cheklangan imkoniyatlari

⁷ [Kiberjinoyatlar statistikasi – Gazeta.uz tahlilida](#)

tergov samaradorligini pasaytirayotgan asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tergov harakatlarida mavjud huquqiy, texnik va kadrlar bilan bog'liq muammolar nafaqat jinoyatlar ochilish darajasini pasaytirmoqda, balki dalillarning sifati va sudda isbotlanish imkoniyatini ham zaiflashtirmoqda. Shu bilan birga, xorijiy tajribalar Janubiy Koreya, Germaniya, Singapur shuni isbotladiki, tergov jarayonini raqamlashtirish va an'anaviy usullarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali sezilarli natijalarga erishish mumkin. Tergov harakatlarini takomillashtirish bu faqat huquqni muhofaza qilish organlarining ichki masalasi emas. Bu butun jamiyatning xavfsizligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda adolatli sud tizimini shakllantirishning muhim tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida tergov harakatlarini zamonaviy darajaga ko'tarish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish orqali nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, balki huquqiy davlat qurish jarayonini yanada jadallashtirish mumkin.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, jinoyat tergovida tergov harakatlarini takomillashtirish bo'yicha bir nechta amaliy takliflar ishlab chiqdim. Bularga birinchi o'rinda muayyan tergov harakatlarini, ya'ni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ishtirokidagi so'roq, tintuv, yuzlashtirish va boshqalarni majburiy ravishda videoqayd qilishni qonun bilan belgilashni kiritish kerak deb hisbladim va kodeksda bu holat aniq belgilab qo'yilishi kerak. Bu dalillarning ishonchligini oshiradi va shaxs huquqlari buzilishining oldini oladi. Ikkinchi o'rinda elektron dalillar - telefon, kompyuter, ijtimoiy tarmoqlar, bulutli xotirani yig'ish, saqlash va ekspertiza qilishning aniq tartibini ishlab chiqish va qonunchilikka kiritish kerak. Uchinchidan, har bir viloyat va Toshkent shahrida maxsus laboratoriyalarini ochish va ularni zamonaviy kompyuterlar, dasturlar va asbob-uskunalar bilan ta'minlash zarur. Yana bir muhim taklifim shuki, barcha tergovchilar uchun raqamli dalillar bilan ishlash, kiberjinoyatlarni tergov qilish va sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha majburiy malaka oshirish kurslarini joriy etish. Bu kurslar har yili o'tkazilishi lozim. Bu takliflar amalga oshirilsa, tergov harakatlarining sifati va samaradorligi sezilarli darajada oshishi, jinoyatlar tezroq ochilishi va sud jarayonlari yanada adolatli bo'lishiga ishonaman.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Toshkent, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. Rustamboyev M. Jinoyat protsessi: darslik. - Toshkent: TDYU, 2022.
4. Ahmedov B. Jinoyat tergovida tergov harakatlarining huquqiy tabiati va takomillashtirish masalalari. Huquqshunoslik.
5. Gulyamov N. Raqamli texnologiyalar va jinoyat tergov. O'zbekiston huquq jurnali. - 2024. - № 4. - B. 67-78.
6. Allen R.J. Criminal Procedure: Investigation and the Right to Counsel / Ronald J. Allen, William J. Stuntz va boshq. - 4th ed. - New York: Wolters Kluwer, 2020.
7. Шейфер С.А. Следственные действия. Система и процессуальная форма.
8. O'zbekistonda kiberjinoyatlar holati va ularga qarshi kurashish choralari // Gazeta.uz, 2025-yil 29-may.
9. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil uchun jinoyatchilik holati

to'g'risidagi hisoboti. – Toshkent, 2025.

10. Grinenko A.V. Следственные действия в уголовном процессе. – М.: Проспект, 2022.

11. Raqamli O'zbekiston-2030 strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni).

12. Қалницкий В.В. Следственные действия: учебное пособие. – Омск: Омская академия МВД России, 2019.

13. International Association for Identification. Digital Evidence Best Practices